

## TURLI GENOTIP VA YUQORI LOKTATSIYADAGI SIMMENTAL ZOTLI SIGIRLARNING SUT MAXSULDORLIGI

**Qo'chqorov Abdukarim Nuriddinovich  
Xoljigitov Asqar Ma'rifjonovich  
Xolo'tayev Ilyosjon Rustamovich**

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va  
biotexnologiyalar universitetining Toshkent filiali*

**Annotatsiya:** *Simmental zotli sigirlar sut oqsilida boshqa zotli sigirlarnikiga nisbatan kappa-kazein fraksiyalari yuqori, shuningdek, bu zot sigirlari sutining texnologik xususiyatlari ham qaymoq, yog' va tvorog tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.*

**Kalit so'zlar:** *Genotip, simmental, sut mahsuldorligi, sutdorlik koeffitsenti, nasl yadrosi, sigirlarning konstitutsiyasi, tirik vazn.*

**Аннотация:** *Белок молока симментальских коров имеет более высокие доли каппа-казеина по сравнению с другими породами коров, а технологические свойства молока этой породы коров также важны при приготовлении сливок, масла и творога.*

**Ключевые слова:** *генотип, симментальская порода, удои, коэффициент удоя, племенное ядро, телосложение коров, живая масса.*

**Annotation:** *The milk protein of Simmental cows has higher kappa-casein fractions compared to other breeds of cows, and the technological properties of the milk of this breed of cows are also important in the preparation of cream, butter and cottage cheese.*

**Key words:** *Genotype, Simmental, milk yield, milk yield coefficient, breeding nucleus, constitution of cows, live weight.*

Simmental zoti jazirama issiq sharoitiga chidamli bo'lgani uchun maxsuldorligi yaxshi, serpusht bo'lgan holda qon parazitlari kasalliklariga bardosh berib yashab kelmoqda.

Turli genotipdagi sigirlarning oziqlantirish sharoiti bir xil bo'lgan. Quyidagi jadvalda zotdorligi 1\2 simmental x Avstriya va ushbu genotipdagi Amerika seleksiyasiga mansub simmental zotli buqalardan olingan va undan yuqori laktatsiyadagi sigirlarning sut mahsuldorlik ko'rsatkichlari keltirildi.

### 1 -jadval

**Turli genotipdagi va undan yuqori laktatsiyalardagi simmental zotli sigirlarning sut mahsuldorligi va tirik vazni.**

| Ko'rsatkichlar       | Seleksiyasi      |       |                  |       |
|----------------------|------------------|-------|------------------|-------|
|                      | Avstriya         |       | Amerika          |       |
|                      | X±Sx             | Sv, % | X±Sx             | Sv, % |
| Bosh soni            | 36               |       | 11               |       |
| Sut mahsuldorligi,kg | 6430,1±131,<br>7 | 12,1  | 6285,5±28<br>2,2 | 14,2  |

|                           |             |      |           |      |
|---------------------------|-------------|------|-----------|------|
| Sut tarkibidagi yog',%    | 4,13±0,002  | 1,16 | 4,12±0,01 | 1,83 |
| Sut yog'i chiqimi, kg     | 265,6±8,15  | 9,71 | 259,0±22, | 14,9 |
| 4 %-li sut miqdori,kg     | 6634,4±147, | 13,1 | 6483,0±30 | 14,9 |
| Sutdorlik koeffitsenti,kg | 1005,4±26,4 | 15,6 | 1020,5±38 | 11,8 |
| Tirik vazni,kg            | 642,8±8,79  | 8,09 | 615,0±10, | 5,34 |

1-jadvalda ko'rinishicha Avstriya seleksiyasidagi sigirlar yuqori sut maxsuldorligini namoyon etadilar. Ularning laktatsiya davomidagi sut miqdori Amerika seleksiyasidagi tengqurlarinikidan 144,5 kg (2,3 %), sut yog' chiqimi 6,6 kg (2,5 %), 4 % -li sut miqdori 150,5 kg (2,3%), tirik vazni 27,8 kg (4,5 %) yuqori bo'ldi. Lekin har ikki genotipdagi sigirlar ham yuqori sut maxsuldorligiga erishdilar. Masalan Avstriya seleksiyasiga mansub sigirlarning laktatsiya mobaynidagi sut miqdori shvits zotining andoza talablaridan 3230,1 kg (2 barobar), sut tarkibidagi yog' 0,43 %, tirik vazni 212,8 kg (31,2 %) yuqori, Amerika seleksiyasidagi buqalardan olingan sigirlarda esa bu ko'rsatkichlar tegishli ravishda 3085,5 kg (1,96 barobar); 0,42 % va 125 (26,5 %) yuqori bo'lgan. Bu ma'lumotlar ushbu sigirlar maxsuldorligi bo'yicha irsiy salohiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

“Nasl yadrosiga” ajratilgan (n-40) sigirlarning sut miqdori 6712,3 kilogramni tashkil etgan. “Buqa etishtiruvchi guruh”da ushbu ko'rsatkichlar tegishli ravishda 4,18 %; 7946,1; 317,8 va 7946,1 kilogrammga barobar bo'lgan. Bunda “nasl yadrosi” dagi sigirlarda sut miqdori shvits zotining andoza talablaridan 3296,6 kg (2,03 barobar), sut tarkibidagi yog' 0,43 %, sut yog' chiqimi 22,6 (2,26 barobar) yuqori bo'lgan. “Buqa etishtiruvchi guruh”da ushbu ko'rsatkichlar taqqoslanayotgan talablardan tegishli ravishda 4407,1 kg (2,4 barobar); 0,48%; 199,4 kg (2,7 barobar) va 142,3 kg (29,0 %) yuqori bo'lganligi kuzatilgan.

SHuni ham ta'kidlash joyizki, ushbu tajriba podasida respublikamizda shvits zotining rekordchi sigirlari etishtirildi. Masalan, Mariya 0204 laqabli sigir 8-laktatsiyasida 4,20 % yog'lilikda 10472 kg sut, YUrmala 9062 laqabli sigir 6-laktatsiyasida 4,25 % yog'lilikda 9664 kg, Bahor 30622 laqabli sigir 3-laktatsiyasida 4,15 yog'lilikda 8095 kg sut maxsuldorligiga ega bo'ldilar.

Tadqiqot natijalari simmental zotli qoramollar podasida Avstriya va Amerika seleksiyasiga mansub buqalardan foydalanish olingan sigirlarning maxsuldorlik xususiyatlarini takomillashtirish imkonini berishini ko'rsatadi. CHatishirishda ushbu genotipdagi nasldor buqalardan foydalanish yuqori maxsuldor sutbop podalar yaratishda va shvits zotining nasl, maxsuldorlik xususiyatlarini takomillashtirishda muhim omil bo'lib hisoblanadi.

SHuni ta'kidlash lozimki, sigirlarning sut mahsuldorligi va tirik vazn, hayvonlar yoshi, oziqlantirish va asrash sha-roiti, tanlash va saralash usullari, urug'lantirish yoshi, otalanish, bo'g'ozlik, laktatsiya, quruq, servis hamda pushtdorlik kabi

zootexnikaviy va seleksion ko'rsatkichlariga bevosita bog'liq bo'ladi. Ma'lumki, sut mahsuloti asosan sut va sut-go'sht yo'nalishidagi zotlardan olinadi. SHulardan asosiysi, shvits zoti xisoblanadi. Ushbu zot sof hodda urchitilayotgan xo'jaliklar uchun juftlashning maqbul usulini qo'llash tarmokdi zootexnikaviy, seleksion va iqtisodiy samaradorligini oshiradi. SHuning uchun ham ushbu zotga mansub bo'lgan ishlab chiqarish xilini aniqlab, ularni laktatsiyasi davomida sut mahsuldorligini o'rganib, bu ma'lumotlar quyidagi jadvalda keltirilgan.

Sut yo'nalishidagi simmental zoti sigirlari konstitutsiyasi mustahkam terining yupqa va zichligi, muskulaturasining zichligi, ichki organlari va qon sestemasining rivojlanganligi bilan farq qiladi. Ularda modda almashinish ancha jadal boradi. Bu tupdagi sigirlar ko'p sut berishi, sutning yog' yuqori bo'lishi va elin ko'rsatgichlari bilan yuqori turadi. Ammo tirik vazni bo'yicha qolgan yo'nalishdagi mollardan bir muncha orqada qolgan

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Akmalxonov SH.A. CHorvachilik samaradorligini oshirish omillari.
2. Ashirov M.E., Soatov O', Ashirov B., Nasriddinov Yo. Turli genotipdagi shvits zotli sigirlarning sut maxsuldorligi.
3. Smakuev D.R. Myasnaya produktivnost skota simmentalskoy porodi razlichnix konstitutsionalnix tipov "Molochnoe i myasnoe skotovodstvo"2014. №1. S. 18-20.